



**Bosh muharrir:**

**SHARIPOV Shavkat Safarovich**

**Tahrir hay'ati:**

**ABDULLAYEVA Barno** (bosh muharrir o'rinbosari)

**ADILOVA Saodat**

**ASHIRBOYEV Samixon** (bosh muharrirning birinchi o'rinbosari)

**DAVLETOV Davron**

**ERGASHEV Dilshod**

**ERGASHOV Maxamatrasul**

**FAYZULLAYEV Saidnosir**

**GULYAMOV Komiljon**

**HAKIMOVA Muhabbat**

**ISYANOV Ravil**

**JALOLOV Jamol**

**JO'RAYEV Muhammadrasul**

**KOMILOVA Nodira**

**MAHKAMJONOV Karimjon**

**MUMINOV Axrol**

**MUSLIMOV Narzulla**

**PANJIYEV Qurbonniyoz**

**QO'YSINOV Odil** (bosh muharrir o'rinbosari)

**RUZIYEV Erkin**

**SAFAYEV Nuriddin**

**TO'RAYEV Samad**

**TOLIPOVA Jamila**

**TULENOVA Karima**

**TUXLIYEV Bokijon**

**VALIYEVA Sirojiya**

**XODJAYEV Begzod**

**ZUFAROV Sherzod**

**SHODMONOVA Shoir**

**Muassis:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.

“Pedagogika” jurnali “Pedagogik ta’lim” jurnalining vorisidir.

Jurnalda pedagogika, psixologiya, o’qitishning metod va texnologiyalariga oid ilmiy-nazariy, ilmiy-metodik maqolalar o’zbek va rus tillarida chop etiladi.

Jurnalga Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasining 2014-yil 26-maydagi 02-004-sonli “Ommaviy axborot vositasi davlat ro’yxatidan o’tkazilganligi to’g’risida guvohnoma” olingan va unga O’zbekiston Respublikasi Milliy kitob palatasining 2008-yil 30-iyundagi 511/S shartnomasi asosida Davriy nashrlarning Xalqaro standartlar (ISSN) – 2010-5320 raqami taqdim etilgan.

O’zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2013-yil 30-dekabdagi 201/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

Jurnal oliy ta’lim muassasalarining professor-o’qituvchilari, ilmiy xodimlar, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari va umumiy o’rta ta’lim maktabi o’qituvchilari, malaka oshirish va qayta tayyorlash tizimi tinglovchilari, magistrantlar, talabalarga mo’ljallangan.

**VIRTUAL MUZEYLAR VA O'QUV JARAYONI**

**Rezume.** Maqolada virtual muzeylarning o'quv jarayonidagi ahamiyati, virtual muzeylar haqida qarashlar, virtual muzeylarni yaratish bosqichlari, virtual sayohatlar tashkil etish, ularni o'quv jarayonida qo'llash usullari samarali ekanligi xususida so'z yuritiladi.

**Tayanch so'zlar:** *muзей pedagogikasi, virtual muзей, virtual minimuзей, virtual sayohat, 3D-muзей.*

**Abstract.** The article discusses the importance of virtual museums in the educational process, views on virtual museums, the stages of creating virtual museums, the organization of virtual tours, and the effectiveness of their use in the educational process.

**Key words:** *museum pedagogy, virtual museum, virtual minimuseum, virtual trip, 3D-museum.*

**Резюме.** В статье рассматриваются значение виртуальных музеев в учебном процессе, взгляды о виртуальных музеях, этапы создания виртуальных музеев, организация виртуальных путешествий, эффективность их применения в учебном процессе.

**Ключевые слова:** *музейная педагогика, виртуальный музей, виртуальный минимузей, виртуальное путешествие, 3D-музей.*

**Z**amonaviy axborot texnologiyalari rivojlanayotgan davrda yashayotgan ekanmiz, tarixni anglash, uni kelajak avlodga yetkazishda virtual muzeylarning o'rne juda ham katta. Virtual muzeylarni yaratish, ularning moddiy-texnik bazasini to'ldirish orqali amalga oshirilayotgan ishlar yosh avlod ongida milliy g'urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish va milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim omillardan biri sifatida xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda muzeylar tizimini yanada takomillashtirish xalqning ma'naviy-axloqiy kamolotida tutgan o'rnini oshirish maqsadida 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi qonun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi va shu asosda "O'zbekmuзей" jamg'armasi tuzildi. Uning asosiy vazifalaridan biri



**R. Atamuratov\***

\*Atamuratov Rasuljon Kadirjanovich, Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU o'qituvchisi. E-mail: [rasul\\_atamuratov@mail.ru](mailto:rasul_atamuratov@mail.ru)

muzeyshunoslik sohasida xalqaro aloqalarni, O'zbekiston va xorijda keng ko'rgazma faoliyati orqali mamlakatning boy tarixi, muzeylarda saqlanayotgan noyob eksponatlarni jahon miqyosida targ'ib etish, zamonaviy texnika vositalarini tatbiq etish, ulardan samarali foydalanishga oid dasturlar ishlab chiqish va virtual muzeylarni yaratishga ko'maklashish belgilandi<sup>1</sup>.

XX asrning 90-yillarida muzeyshunoslikka kirib kelgan "virtual muzey" tushunchasi zamonaviy muzeyshunoslikning butun boshli yo'nalishiga aylanib ulgurdi. Dastlabki vaqtlarda ushbu tushuncha o'quvchilar orasida u qadar keng tarqalmagan edi. "Virtual" so'zi "mo'jiza, haqiqiy, real" ma'nolarini ifoda etsa ham, aslida u lotinchadan tarjima qilinganda "virtus" – xayoliy, faraz qilish so'zlaridan kelib chiqqan<sup>2</sup>.

Virtual muzeylar yaratish texnologiyalari borasida bir qator muzeyshunoslar va olimlar ilmiy izlanish olib borishgan. Bularga K. Valchak, G. Miller, J. Boven, Martin Uayt, N. P. Lisikova, V. I. Gvazava, I. G. Elener, A. A. Zarubin, V. V. Selivanov, T. E. Maksimova, E. V. Sherbakova, V. A. Matveev, D. E. Suprun, B. Xodjajev, J. Ismoilova va boshqalarni kiritish mumkin.

Poznan Iqtisodiyot universiteti dotsenti Kshishtof Valchakning fikricha, virtual muzeylarni yaratish tashrif buyuruvchilar sonini oshirish, ular qatorida turli yoshdagi o'quvchilar va imkoniyati cheklangan insonlar ham muzey ko'rgazmalari bilan tanishishi va virtual sayohat qilish imkonini, noyob eksponatlar saqlanadigan muzeyga kirish qiyinchiliklarining oldini olish va yaqindan tanishishga zamin yaratadi<sup>3</sup>.

N. P. Lisikova tadqiqotlarida virtual muzeylarning har bir o'quvchiga yangi madaniyat, yangi muloqot, tajribalar va yetuk shaxs ta'lim-tarbiyasidagi roli, shuningdek, umumiy masalalarni hal qiluvchi va o'quv jarayonida foydalanish samaradorligini oshiruvchi vosita ekanligi borasida atroflicha fikrlar keltirilgan<sup>4</sup>.

T. P. Marchik fikriga ko'ra, virtual muzeylar zamonaviy pedagogikaning yangi haqiqiy, istiqbolli o'qitish usuli hisoblanadi. Virtual muzeylar barcha uchun ochiq, virtual sayohatlar qilish oson va doimiy bo'ladi. Bu turdagi muzeylar

---

<sup>1</sup>Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003. – Т. 6. – Б. 115.

<sup>2</sup>Қурбонова Д. Замонавий музейшunosликда виртуал кўргазмаларнинг истиқболлари // Ўзбекистон музейлари истиқболи. – Тошкент: АКАДЕМНАШР, 2013. – Б. 38.

<sup>3</sup>Walczak K. Virtual museum exhibitions – Poland: Computer, 2006. – P. 93.

<sup>4</sup>Лысикова Н. П. Виртуальный музей в системе школьного образования // Образование в современном мире: – Саратов: Саратов. 2016. Вып. 11. – С. 29.

yordamida san'atning o'tmishi, kelajagi va bugungi kunini birdan ko'rishi, kuzatishi, idrok etishi, ekskursiyalar amalga oshirishi orqali o'quvchilarning mustaqil ishlashlarini takomillashtirish mumkin<sup>1</sup>.

I. G. Elener tadqiqotlariga ko'ra, virtual muzeylarning inson ongiga bevosita ta'siri bo'lib, dunyoqarash, axloq va hayot tarzini anglash, madaniyat shakllariga yangicha munosabat tuyg'ularini uyg'otishi, hamkorlikda virtual sayohat tashkil etish va yodgorliklar bilan yaqindan tanishish imkoniyatlarini yaratadi<sup>2</sup>.

B. Xodjayev tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, virtual muzeylardan o'quv jarayonida foydalanish nafaqat darsni samarali tashkil etish va ta'lim sifatini oshirish, balki hamkorlik pedagogikasi doirasida o'quvchilarning tadqiqotchilikka doir faoliyatini muvaffaqiyatli tashkil etishga ham imkon beradi. Zamonaviy muzey pedagogikasi esa, eng avvalo, o'quvchi shaxsining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish vazifasini hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, tarixiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlarni pedagogik jarayon orqali kelajak avlodga yetkazishdan iboratdir. Muзей pedagogikasida o'qitishning o'ziga xos jihati norasmiylik va ixtiyoriylikdir. O'qitishning o'ziga xos xususiyati sifatida o'quvchilarning o'z qobiliyatlarini maksimal darajada amalga oshirish va qiziqishlarini qondirishga imkon berishi aks etadi. Virtual muzeyni yaratish ikkita metodika – muzey pedagogikasi va zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslanadigan loyihalar metodi integratsiyasi natijasida yuzaga keladi (1-jadval)<sup>3</sup>.


---

<sup>1</sup>Марчик Т. П. Виртуальный музей, музейная комната: возможности, этапы создания, перспективы. Современное образование Витебщины. 2014. – № 4. – С. 83-85. <http://lib.vsu.by/xmlui/handle/123456789/5783>

<sup>2</sup>Eliner I. G. Multimedia culture and modern society. – Sankt-Petersburg: Native land, 2008. – P. 9.

<sup>3</sup>Ходжаев Б. Модернизациялашган дидактик таъминот воситасида умумтаълим мактаблари ўқувчиларида тарихий тафаккурни ривожлантириш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2015. – Б. 252.

## Virtual muzeyning pedagogik imkoniyatlari



Birinchi virtual muzeylar 1991-yil internet tarmog'ida web-sayt ko'rinishida tashkil etilgan. Dastlab virtual muzeylar haqiqiy muzeylarning saytlari bo'lgan bo'lsa, keyinchalik shaxsiy web-sayt — muzeylar paydo bo'la boshladi, lekin barcha rasm to'plamlari ham virtual muzey bo'la olmaydi. Virtual muzeylarning to'plamlari ikkita o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishi kerak. Bu virtual sayohatlar va eksponatlarining mukammallashgan qidiruvidir.

Virtual muzeylar madaniy-ma'rifiy muassasasigina bo'lib qolmay, balki o'quvchilar uchun katta qiziqish uyg'otuvchi ko'rgazmalarni virtual tomosha qilish imkonini beruvchi dunyo san'ati boyliklari jamlanmasidir<sup>1</sup>.

Virtual muzeyning asosiy maqsadi va vazifalari:

- madaniy makon yaratish va insonlarning madaniy bilimlarini shakllantirish;
- moziy namunalarini keng ommaga taqdim etish;

<sup>1</sup>**Ходжаев Б.** Модернизациялашган дидактик таъминот воситасида умумтаълим мактаблари ўқувчиларида тарихий тафаккурни ривожлантириш. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2015. – Б. 250.

- muzeylarga tashrif buyurishga jalb etish;
- virtual sayohatlar tayyorlash va o'tkazish;
- ilmiy tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirish;
- jamlangan materiallar vositasida tashrif buyuruvchilarning bilim doirasini kengaytirish;
- muloqotchanlikni shakllantirish;
- o'quv jarayonida virtual muzeylar materiallaridan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berishdan iborat.

Virtual muzeylar 3 ko'rinishda yaratiladi.

1. Web sayt ko'rinishi, bunda muzey materiallarining namoyishini optimallashtirish, asl san'at va tarixiy asarlar bilan yaqindan tanishish, muzeylarda uchraydigan bir qancha noqulayliklar (saqlash, xavfsizlikni ta'minlash, tez va oson eksponatlarni o'rganish)ni bartaraf etish imkoniyatlari mavjud.

2. Real mavjud bo'lmagan muzey (keng ma'noda), bunda turli muzey eksponatlari bitta virtual muzey ko'rinishida aks etadi.

3. Axborot resursi bo'lib, zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida yaratilgan, moddiy va nomoddiy obyektlarni turlicha (web sahifa, CD va DVD disk) mujassamlashgan ko'rinishi hisoblanadi.

Virtual muzey yaratish uchun, avvalo, loyiha va uni amalga oshirish bosqichlari, qaysi internet tarmog'iga joylashtirish va virtual turlarni amalga oshirish texnologiyalari va interaktiv muloqot shakllari, qisqa qilib aytganda, algoritm ishlab chiqish talab etiladi.

Virtual muzeylar yaratish algoritmining mazmuni va mohiyati shundaki, muzeylardagi eksponatlarni saqlash, himoyalash, keng, tez va osonlik bilan tomosha qilish, ularni kattalashtirish, yaqindan ko'rish, o'ziga xos tuzilishini aniq bilish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

Bu algoritmnini amalga oshirish uchun web sayt ko'rinishidagi virtual muzey yaratish texnologiyasini 3 bosqichga bo'lamiz:

1. **Boshlang'ich bosqich.** Avvalo, yaratiladigan virtual muzey uchun ta'limiy yo'nalish, sayt rejasi va eksponatlar bilan tanishish, ularni davrlarga ajratish, eksponatlar bo'yicha to'liq ma'lumotlarni to'plash va texnologik bosqichga, ya'ni vizuallashtirishga tayyorlanadi.

2. **Texnologik bosqich.** Bu bosqichda to'plangan axborotlarni foto ko'rinishida formatlash, lavhalar tayyorlash, videoroliklar yaratish va 3D

tahrirlovchi dasturlar yordamida virtual muzey interfeysi ko'rinishida shakllantiriladi.

3. **Yakuniy bosqich.** Yaratilgan virtual muzey internet tarmog'iga yoki lokal tarmoqqa joylashtiriladi va o'quv jarayoniga tatbiq etishdan iborat bo'ladi.

Virtual muzey ta'limiy, madaniy-ma'rifiy, kommunikativ va qiziqtiruvchi xususiyatlarga ega.

Ta'lim-tarbiya jarayonida virtual muzeylarning imkoniyatlari juda ham keng bo'lib, maktabda (tarix darslarida) turli mamlakatlarning muzeylariga virtual sayohatlar qilish, moziy meroslari bilan yaqindan tanishish va rang-barang eksponatlar mujassamlashgan kolleksiyalarni, foydali va qiziq ma'lumotlarni o'z ichiga olgan virtual muzey zallari bo'ylab qilgan sayohati o'sha go'zallik muhitining ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini beradi.

O'quv muassasalaridagi adabiyot darslari ko'pincha an'anaviy usulda tashkil etiladi. Biror yozuvchi yoki shoir hayoti va ijodi o'rganilganda ma'lumotlar turli ko'rinishlarda (matn, rasm va taqdimot) berilsa, ya'ni yaratilgan virtual uy muzeylaridan foydalanilsa, o'quvchining yozuvchi yoki shoirning tarjimai holi, u yashagan uy muhiti bilan yaqindan tanishish hamda virtual sayohat qilish orqali esa o'sha davr "jonli" muhitida "yashash"i uchun katta imkoniyat yaratiladi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bu ko'rinishdagi muzeylarni yaratish muzeylarga bo'lgan qiziquvchilar sonini faqat ko'paytiradi va madaniy meroslarni kelajak avlodga asrab-avaylab yetkazish va saqlashga yordam beradi. Bu madaniy hayotni yangi bosqichga chiqqanidan dalolat beradi.

Demak, virtual olamning yangicha haqiqati bo'lgan virtual muzeylarning o'rni va foydasi beqiyosdir, shu tufayli yurtimizdagi muzeylarning ham virtual ko'rinishini yaratish, ulardan o'quv jarayonida o'rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir.



## M U N D A R I J A

<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA, PEDAGOGIK INNOVATIKA</b>	
<b>Qo'ysinov Odil, Yakubova Hilola</b> Mehnat ta'limi fanining tarixiy taraqqiyoti va istiqbollari.....2	<b>Ibragimov Berdimurat</b> Fizikaning mexanika bo'limiga doir grafik masalalar yechish metodikasi.....36
<b>Abdumadjidova Dildora</b> Farzand tarbiyasida psixologik ustanovkalarining o'rni.....8	<b>Raximov Ikromjon, Turgunbayev Riskeldi</b> Talabalarning o'quv-tadqiqot faoliyatini takomillashtirishda mahorat mashg'ulotlarining o'rni.....45
<b>Raximov Zokir</b> Talabalar o'quv faolligini rivojlantirishda ta'lim innovatsiyalaridan foydalanish.....12	<b>Жуманиёзов Кудрат</b> Из опыта организации обучения математике посредством занимательных игр и викторин.....50
<b>Imomov Musurmon</b> O'quvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....20	<b>Джанпеисова Гаухар</b> Развитие логических приемов мышления у дошкольников на основе геометрического учебного материала.....60
<b>TA'LIM TIZIMI MENEJMENTI</b>	
<b>Turg'unov Sobitxon, Nurmanov Alisher</b> Kasb-hunar kollejlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish.....26	<b>Iskandarov Aybek, Omonov Hojiqul</b> Kimyo texnologiyasi va ta'lim jarayoni .....68
<b>MATEMATIKA VA TABIIY-ILMIY FANLAR TA'LIMI</b>	
<b>Djoraev Maxamatrasul, Abdullayev Jalil</b> Talabalarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda kvant fizika elementlarining o'rni.....31	<b>Ibragimov Nodir</b> O'quvchilarning matematik qobiliyatlarini maxsus masalalar yechish yordamida rivojlantirish.....73
	<b>Sheraliyev Sa'dulla</b> Ta'limda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilish.....81
	<b>Adinayev Sherzod</b> Talabalar mustaqil ishlarini tizimli tashkil etish.....88



**Babadjanov Salohiddin**

Informatika va axborot  
texnologiyalari fani orqali  
pedagogika oliy ta'lim muassasasi  
talabalarining mediakompetentligini  
rivojlantirish tizimi.....93

**IJTIMOY VA GUMANITAR FANLAR  
TA'LIMI****Azimova Feruza,****Toshtemirova Gulnoza**

Badiiy asar tahlili madaniyati.....99

**Atamuratov Rasuljon**

Virtual muzeylar va o'quv  
jarayoni.....107

**Морозова Юлия**

О некоторых аспектах организации  
занятий по русской литературе на  
английском языке.....113

**XORIJY TA'LIM TAJRIBALARI****Lutfullayev Po'latxon**

Tyuning metodologiyasining oliy  
ta'limda sifat va raqobatbardoshlikni  
oshirishdagi o'rni .....123